

O'LKASHUNOSLIK BIBLIOGRAFIK QO'LLANMALAR TIZIMI

Matmuradova Malika Isayevna,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

"Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrasи

katta o'qituvchisi

Аннотацияси: Мазкур мақолада Ўлкашунослик библиография хизматининг сифати ва ривожланиш суръати ўлкашунослик библиографиясининг бош масаласи—ўлкашунослик библиографик қўлланмалари тизимини асослаш, ташкил қилиш, тўлдириш масалаларига боғлиқлиги, библиографияшунослар бу масаланинг иккита бир-бiri билан боғлик томонини ажратаганлиги, назарий ва амалий тизимларни ҳамма бўлинмаларини турли мақсадга ва китобхонлар гуруҳига мўлжалланган қўлланмалар билан тўлдирилиши, муентазам тузиш ва фойдаланиш самарадорлиги ошириш, ўлкашунослик библиографик қўлланмаларнинг ижтимоий вазифасига қўра илмий-ёрдамчи ва тавсия қўлланмалари тизими шаклланиши, ривожланиши ва тузилиши хақидаги маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: ўлкашунослик, библиографик қўлланма, илмий ёрдамчи, тавсия библиографик қўрсаткичлар, ёрдамчи аппаратлари.

Abstract: This article provides information on the dependence of the quality and development rate of the regional studies bibliography service on the main issue of regional studies bibliography - the issues of substantiating, organizing, and supplementing the system of regional studies bibliographic manuals, bibliographers have distinguished two interrelated aspects of this issue, the replenishment of all sections of theoretical and practical systems with manuals intended for various purposes and groups of readers, the systematic creation and increase of the efficiency of use, the formation, development and structure of a system of scientific-auxiliary and reference manuals in accordance with the social function of regional studies bibliographic manuals.

Keywords: regional studies, bibliographic manual, scientific assistant, reference bibliographic indicators, auxiliary devices.

O'lkashunoslik bibliografiya xizmatining sifati va rivojlanish sur'ati o'lkashunoslik bibliografiyasining bosh masalasi – o'lkashunoslik bibliografik qo'llanmalarini tizimini asoslash, tashkil qilish, to'ldirish masalalariga bog'liq. Bibliografiyashunoslар bu masalaning 2 ta bir-biri bilan bog'liq tomonini ajratadilar: 2 ta bir-biri bilan bog'liq tomonini ajratadilar: a) nazariy – tizimning optimal modeli (sxemasi) ni yaratish; b) amaliy – tizimning hamma bo'linmalarini turli maqsadga va

kitobxonlar guruhiga mo’ljallangan qo’llanmalar bilan to’ldirish, muntazam tuzish va foydalanish samaradorligi masalasi.

O’lkashunoslik bibliografik qo’llanmalari tizimi – bu ma’lum bir muhim, ya’ni muhim ijtimoiy belgilariga ko’ra birlashtirilgan o’lkashunoslik qo’llanmalari majmuasidir, masalan, o’lkashunoslik ilmiy-yordamchi qo’llanmalar tizimi.

Qo’llanmalar tizimini vujudga keltiruvchi muhim omillar qo’llanmalarning ijtimoiy maqsadi, qo’llanmalarga murojaat qiluvchi kitobxonlar talablaridir. Yana bu qo’llanmalar tizimini tuzish zarurati ûlkashunoslik adabiyotlarining ko’p aspektli xarakteridan (o’lkaning tarixi, uning hozirgi ahvoli, tabiiy boyliklari, xalq xo’jaligi, ijtimoiy hayoti), viloyat, o’lka, avtonom respublika bilan u yoki bu tomonlama bog’liq bo’lgan alohida shaxslarning faoliyatidan kelib chiqadi. O’lkashunoslik bibliografik qo’llanmalari tizimining modelini ishlab chiqish yana o’lkashunoslik xususiyatidagi turli bibliografik materiallar sonining doimo o’sib borishi bilan ham bog’liqdir.

O’lkashunoslik bibliografik qo’llanmalari tizimi – bu ma’lum bir muhim, ya’ni muhim ijtimoiy belgilariga ko’ra birlashtirilgan o’lkashunoslik qo’llanmalari majmuasidir, masalan, o’lkashunoslik ilmiy-yordamchi qo’llanmalar tizimi.

Qo’llanmalar tizimini vujudga keltiruvchi muhim omillar qo’llanmalarning ijtimoiy maqsadi, qo’llanmalarga murojaat qiluvchi kitobxonlar talablaridir. Yana bu qo’llanmalar tizimini tuzish zarurati o’lkashunoslik adabiyotlarining ko’p aspektli xarakteridan (o’lkaning tarixi, uning hozirgi ahvoli, tabiiy boyliklari, xalq xo’jaligi, ijtimoiy hayoti), viloyat, o’lka, avtonom respublika bilan u yoki bu tomonlama bog’liq bo’lgan alohida shaxslarning faoliyatidan kelib chiqadi. O’lkashunoslik bibliografik qo’llanmalari tizimining modelini ishlab chiqish yana o’lkashunoslik xususiyatidagi turli bibliografik materiallar sonining doimo o’sib borishi bilan ham bog’liqdir.

Ijtimoiy vazifasiga ko’ra o’lkashunoslik bibliografik qo’llanmalari tizimi 2 ga bo’linadi: ilmiy-yordamchi va tavsiya qo’llanmalari tizimi. Bu 2 kichik tizim birikib, bir-birini to’ldiradi va butun o’lkashunoslik bibliografik qo’llanmalari tizimini tashkil etadi.

O’lkashunoslik tavsiya qo’llanmalari kichik tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- a) universal xususiyatdagi o’lka (uning alohida tuman va shaharlari) haqidagi adabiyotlar ko’rsatkichni (“Что читат о... крае, районе, городе” – “...o’lka, tuman, viloyati haqida nimalarni o’qish kerak” ko’rsatkichlari);
- b) mahalliy joy hayotining turli masalalari bo’yicha mavzuli qo’llanmalar;
- v) o’lkashunoslik shaxs ko’rsatkichlari va biobibliografik lug’atlar;

II. O’lkashunoslik ilmiy-yordamchi qo’llanmalari kichik tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

- a) Yangi o’lkashunoslik adabiyotlarining ko’rsatkichlari,
- b) Universal xususiyatidagi retrospektiv ko’rsatkichlar,

- v) Mavzuli va tarmoq qo'llanmalar,
- g) Shaxs ko'rsatkichlari va biobibliografik lug'atlar,
- d) Mahalliy vaqtli va davomli nashrlar ko'rsatkichlari,
- ye) O'lakashunoslik bibliografik qo'llanmalarining ko'rsatkichlari.

Bibliografik qo'llanmalar tizimi na faqat o'lakashunoslik bibliografik faoliyatni nazariy oldindan aytib berish manbai bo'lib qolmay, balki o'lakashunoslik ko'rsatkichlarining asosiy turlarini aniqlash bo'yicha, kutubxonalarining jonajon o'lka haqida ko'rsatkichlar tizimini yaratish faoliyatlarida metodik rahbarlik hamdir.

I. O'lakashunoslik tavsiya qo'llanmalari kichik tizimi:

- a) universal xususiyatdagi o'lka, uning alohida tumanlari va shaharlari haqidagi adabiyotlar ko'rsatkichi ("...o'lkasi, viloyati, tumani haqida nimalarni o'qish kerak" tipidagi ko'rsatkichlar),
- b) kompleks bibliografik qo'llanmalar ("Kray za ... let", "O'lka ... yil ichida", "... o'lkasi mustaqillikning ... yilida" kabi ko'rsatkichlar),
- v) o'lkaning muhim va unutilmas sanalari kalendar,
- g) mahalliy joy hayotining turli dolzARB masalalari bo'yicha mavzuli qo'llanmalar,
- d) o'lakashunoslik shaxs ko'rsatkichlari va biobibliografik lug'atlar.
- ye) qo'llanmalarning kichik shakllari (esdaliklar, varaqalar, bibliografik plakatlar, o'qish rejalar, o'qish doiralari, xatcho'plar).

II. O'lakashunoslik ilmiy-yordamchi bibliografik qo'llanmalar kichik tizimi.

- a) yangi o'lakashunoslik adabiyotlarining ko'rsatkichlari ("...o'lkasi (viloyati) haqida adabiyotlar" tipidagi),
- b) universal xususiyatdagi retrospektiv ko'rsatkichlar,
- v) mavzuli va tarmoq qo'llanmalar,
- g) shaxs ko'rsatkichlari va biobibliografik lug'atlar,
- d) mahalliy vaqtli nashrlar ko'rsatkichlari,
- ye) o'lakashunoslik bibliografik qo'llanmalarining ko'rsatkichlari.

O'lakashunoslik tavsiya bibliografik qo'llanmalari kichik tizimining 1-asosiy tarkibiy qismi:universal xususiyatdagi o'lka, uning alohida tumanlari va shaharlari haqidagi adabiyotlarning ko'rsatkichi XX asrning 20-yillarda paydo bo'lgan II-jahon urushidan keyin rivojiana bordi.Urushdan keyin Rossiyanin Xabarovsk o'lka kutubxonasi 1-bo'lib bu xil ko'rsatikchlarni tuza boshladi.

Bu turdag'i ko'rsatkichlar endigina o'lakashunoslik adabiyotlarini o'qiy boshlagan kitobxonlarga mo'ljallab chiqariladi. Hozirda bu xil qo'llanmalar Rossiyaning 70 foiz viloyat kutubxonalarida, Ukraina Belorus, Qozog'iston Respublikalarida chiqariladi. Bizning Respublikamizda esa bu xil ko'rsatkichlar Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Xorazm viloyat AKM larida tuzildi. "Что читат о Бухаре", "Что читат о Самарканде" (1969), "Что читат о Хиве" (1974) (bu keyingi

ikki ko'rsatkich bosma holda chiqqan), "Что читат о Сурхандарье" kabi nomda chiqarilgan.

Bu xil ko'rsatkichlarda keyingi 3-5 yil ichidagi yangi va yaxshi o'lkashunoslik adabiyotlari tanlab tavsiya qilinadi. Hujjatlarning hammasiga keng tavsiya annotasiyasi beriladi.

Hujjatlarning joylashtirilishi ham kitobxonlar doirasiga mos holda, ya'ni oddiyidan murakkabga, umumiydan xususiyga qarata bo'lishi mumkin.

Tizimning 2-chi turi- bibliografik qo'llanmalar-o'lkani chuqur o'rganuchi kitobxonlarga mo'ljallab tuziladi. U kitobxonlar-targ'ibotchilar, notiqlar, talabalar, davlat va xo'jalik organlari xodimlari.

Ularni tuzish XX asrning 80 yillarda boshlandi, bunga sabab - o'lka hayotida qisqa davr ichida yuz bergen o'zgarishlar, erishilgan yutuqlarni keng targ'ib qilish zaruratidir. Bunday ko'rsatkichlarning asosiy vazifasi - ma'lum davr ichida o'lkada qo'lga kiritilgan yutuqlar haqidagi adabiyotlarni targ'ib qilishdan iborat. Ularning qimmati – ularning dolzarbliligi, ijtimoiy hayot, xalq xo'jaligi vazifalari bilan uzviy bog'liqligidadir.

Bunday qo'llanmalar deyarli hamma Respublikalar viloyat kutubxonalarida yaratiladi O'zbekistonda ham bunday qo'llanmalar turli nomlarda chiqariladi. Masalan, "... viloyati mustaqillik yillarda", "Mustaqil o'ljam" va h. k.

Keyingi turi: "Viloyatning muhim va unutilmas sanalari kalendar". Birinchi bo'lib bunday kalendar Rossiyaning Saltikov – Shchedrin nomidagi (hozirgi) Milliy kutubxonasi Ikkinci jahon urushidan oldin chiqargan. Viloyat kutubxonalarida bu ko'rsatkich XX asrning 50-yillari o'rtalarida paydo bo'lib, uni Rossiyaning Ivanovo viloyati kutubxonasi kitob ko'rinishida nashr etdi.

Kalendarlarda dastlab xronik material beriladi. Kalandarga 25, 50, 75, 100, 125, 150 yilliklar kabi sanalar olinadi. So'ngra eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan eng katta sanalar olinadi. Sanalarga obzor, adabiyotlar ro'yxati beriladi. Xaritalar, rasmlar haqida ma'lumot, diafilmlarni ham kiritish mumkin. Ko'p hollarda sitatalar, uchirma gaplar ham beriladi. Alovida hollarda arxiv materiallari haqida ham ma'lumot beriladi. Bu kalendarlar 1959 yilgi "...Nizom" da ko'zda tutilmagan edi. Keyinchalik qo'llanmalar tizimi mutaxassislar tomonidan muhokama qilinib, takomillashtirildi. Ko'p kutubxonalarda bu qo'llanmalar tuzila boshlangach, uni ham o'lkashunoslik tavsiya bibliografik qo'llanmalari kichik tizimiga kiritish maqsadga muvofiq deb topildi. Hozirda "... Kalendar" larni ko'p viloyat kutubxonalari tuzadi.

O'zbekiston viloyat AKM laridan Andijon, Farg'ona, Buxoro viloyat AKM lari tuzadi (lekin ular bosma holda emas, mashinkada ko'paytirib, tarqatilgan, hozirda kompyuter yordamida tayyorlanmoqda).

Keyingi tur – o'lka, hayotining turli masalalari bo'yicha mavzuli ko'rsatkichilar. Ular kitobxonlarga mo'ljallanishi, maqsadi, nashr etilishga ko'ra bir-biridan farq

qiladi. Ularning mavzusi xilma-xil. Ular alohida nashr sifatida, obzor sifatida, kichik ro'yxatlar, kitob haqida suhbat, o'qish rejalarini holida chiqariladi.

Lekin ularning hammasini maqsadi yagona – davlat -qurilishi, yoshlarni tarbiyalashga yordam berish. AKM lari, ARM lari va boshva kutubxonalar o'lkashunoslik ko'rsatkichlarining tematikasini takomillashtira borib, O'zbekiston Respublika hukumati mamlakatimiz xalqi oldiga qo'ygan xo'jalik va ijtimoiy hayotning dolzarb masalalari, ma'naviyat, madaniyat, yoshlar tarbiyasi vazifalari bilan bog'lashga harakat qilmoqdalar.

Mahalliy davlat organlari faoliyati, hozirgi kunning eng dolzarb masalalari – an'analar va o'lka urf-odatlarining qayta tiklanishi, hozirgi iqtisodiy hayot va joylardagi tashabbuskor – ishbilarmonlar, fermerlik faoliyati va biznesga oid qo'llanmalar, kasb tanlashga yordam beruvchi ko'rsatkichlar ko'plab tuzilmoqda. Viloyat tarixini o'rghanish mavzusidagi qo'llanmalar soni hozirda juda ko'p. Viloyat AKM larida bu mavzudagi ko'rsatkichlar, obzorlar, esdaliklarga alohida ahamiyat berilmoqda. Masalan, "Namangan inqilob davrida", "Что читат об истории Самарканда до 1917 г.", "Бухара в художественной литературе", "Бухарская народная филармония", "Olkamizda fermer xo'jaliklari" va h. k. Bunday ko'rsatkichlar o'lkashunoslik universal ko'rsatkichlaridan foydalanishni biladigan, o'lka haqidagi turli mavzulardagi adabiyotlarni o'qiydigan, turli qiziqishga ega kitobxonlarga mo'ljallanadi. Ularda hujjatlar mavzular va sohaning ichki bo'linmalari (sistemasi) bo'yicha joylashtiriladi.

Tizimning keyingi turi shaxs ko'rsatkichlari va biobibliografik lug'atlari, Bu ko'rsatkichlar jonajon o'lkasi bilan bog'langan olimlar, sayyoohlar, yozuvchilar, ishlab chiqarish ilg'orlari va boshqa mashhur shaxslarga bag'ishlanadi. Ularning vazifasi – shu mashhur arboblarning o'lkaning siyosiy, ilmiy, madaniy hayotidagi o'rnini ko'rsatib berishdan iborat.

Bunday ko'rsatkichlar bir shaxsga bag'ishlangan (masalan, "Amir Temur Samarcandda"), biobibliografik lug'atlar (bir xil kasbdagi shaxslarga bag'ishlangan) bo'lishi mumkin. O'zbekiston viloyat AKM larida bu xil ko'rsatkichlarga katta ahamiyat berilmoqda. Masalan, "Bobur-bizning hamshahar", "Писатели Бухары", "Писатели Самарканда", "Olkamiz musavvirlari" (Surxondaryo viloyat AKM), "Abu Rayxon Beruniy", "Ulug'bek" (Samarqand viloyat AKM) kabi qo'llanmalar tuzilgan.

Yuqorida ko'rilgan, "... Nizom" da ko'rsatilgan turlaridan tashqari, tavsiya qo'llanmalari kichik tizimiga hozirda yana bir tur qo'shilganki, bu tur hozirda hamma viloyat AKM larida keng, ko'p nomlarda tuziladi. Bu – tavsiya bibliografiyasining kichik shakllari - varaqalar, obzorlar, esdaliklar, biobibliografik plakatlardir.

Ularning maqsadi – bu masalaga birinchi marta qiziqqan kitobxonlarga eng muhim ilmiy – ommabop adabiyotlar haqida xabar berish, o’lkani o’rganishga ularning diqqatini jalb etishdan iborat. Ularda ham adabiyotlarga tavsiya annotasiyasi beriladi.

Ko’p AKM lari, ARM lari “Jonajon o’lka haqida kitoblar” turkumida varaqalar, esdaliklar chiqaradilar.

O’lkashunoslik bibliografik qo’llanmalari tizimining ikkinchi asosiy kichik tizimi.

O’lkashunoslik ilmiy-yordamchi qo’llanmalar kichik tizimidir.

Tizimning birinchi bosh bo’g’ini.

a)”Yangi o’lkashunoslik adabiyot ko’rsatkichlar”. Ularning vazifasi – o’lka haqidagi yangi adabiyotlar haqida tezkor axborot berishdan iborat. Hozirda bu ko’rsatkichlar deyarli barcha viloyat AKM lari tomonidan tuziladi. Bu ko’rsatkich o’lka haqidagi yangi kitoblar, markaziy va mahalliy vaqtli matbuotdan maqolalarni o’zida aks ettiradi. Bu ko’rsatkichlar aynan bir o’lka – viloyat, tuman, shahar haqidagi yangi matbuot asarlarini o’z ichiga oladi. Masalan, “Новая литература о Москве”, “Новая литература о Магнитогорск”, “Литература об Астраханской области” ва h. k.

Bunday ko’rsatkichlar yillik, yarim yillik, choraklik qilib, bosmaxona yo’li chiqarilgan. Universal xususiyatdagi yuqoridagi ko’rsatkichlar bilan bir qatorda bunday nashrlar tarmoqlar bo’yicha ham chiqariladi.

O’zbekistonda “Andijon viloyati haqida yangi adabiyotlar”, ”Новая литература об Андиканской области”, ”Новая литература о Наманганской области” kvartallik nashrlari o’zbek va rus tillarida, shuningdek, boshqa viloyatlarda ham shu nomdagi ko’rsatkichlar yarim yillik holida chiqariladi. Qoraqalpog’iston Respublikasi AKM da esa “Литература о Каракалпакии” va “Культура и искусство нашего края” ko’rsatkichlari chiqariladi.

Respublikamiz viloyat AKM larida tuzilayotgan bu ko’rsatkichlarning aksariyat ko’pchilik qismi bosmaxona yo’li bilan emas, balki yozuv mashinkasida ko’paytirib tarqatilgan, faqat Farg’ona, Samarcand viloyat AKM larida rotaprint va rotatorlarda ko’paytirilar edi, hozirgi yangi axborot texnologiyalar yordamida esa barcha AKM larida bunday bibliografik materiallar ko’plab tuzilmoqda.

Ko’rsatkich materiallari o’lka hayotining hamma tomonlarini qamrab olgan sistema - Kutubxona-bibliografiya klassifikasiyasi jadvalining o’lkashunoslik adabiyotlari uchun maxsus varianti asosida, faqat ruknlar soni bir muncha kamroq holda sistemalashtiriladi (joylashtiriladi). Bu ko’rsatkichlar ko’pincha “byulleten” deb nomlanib, ular yordamchi sarlavhalar va ismlar ko’rsatkichi bilan ham ta’minlanadi.

Hozirgi yangi axborot texnologiyalari sharoitida esa bunday qo’llanmalarni tuzish ishi ancha yengillashgan, negaki, ularni tuzib, kompyuterda terib, istalgan nusxada chiqarish va kutubxonalarga tarqatish mumkin va shunday qilinmoqda ham.

b) Universal retrospektiv ko'rsatkichlar. Bu bo'g'in ko'rsatkichlari ham katta guruhni tashkil qiladi. Bunday ko'rsatkichlar asosan yirik ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda tuziladi. Bunday ko'rsatkichlarda yirik davr ichidagi o'lka hayotining hamma sohasi bo'yicha adabiyotlarning ma'lum oid materiallar bir tartibga solingan ro'yxati beriladi. Ularda, ayniqsa, o'lka tarixiga keng olinadi. Bu turga misol qilib "Библиографический указател литературы о Самарканде и Самаркандской области" ko'rsatkichini olish mumkin.

Bunday ilmiy yordamchi retrospektiv ko'rsatkichlarga shaharlar haqida tuzilgan ko'rsatkichlar ham kiradi. Masalan, "Moskva", "Irkutsk", "Toshkent", "Nukusu-50 let" ko'rsatkichlari. Bunday ko'rsatkichlar asosan shaharlarning yirik yubileyлari munosabati bilan tuziladi. "Toshkent" ko'rsatkichi Toshkentning 2000 yillik yubileyi munosabati bilan 1983 yilda tuzilgan hamda o'zbek va rus tillarida nashr qilingan. 2009 yilda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining Milliy bibliografiya bo'limi xodimlari tomonidan Toshkent ning 2200 yilligiga bag'ishlangan "Toshkent 2200 yoshda" bibliografik ko'rsatkichi tayyorlandi va kutubxona nashriyotida chop etildi. Ko'rsatkichdagi materillar shahar hayotining yo'nalishlariga oid yirik sohaviy mavzuli bo'yicha joylashtirilgan. Bo'limlar ichida adabiyotlar alifbo tartibida berilgan bo'lib, ma'lumot annotasiyasi bilan ta'minlangan.

Ko'rsatkichda materiallar quyidagi bo'limlarda joylashtirilgan. Rasmiy hujjatlar, universal mazmundagi, o'lka tabiatni va tabiiy boyliklari, o'lkada texnika, energetika, o'lka sanoati, o'lkada qurilish ishlari, o'lka transporti, industriyasi, sog'liqni soqlash, sog'liqni saqlash muassasalari, maorif, ta'lim va tarbiya ishlari, jismoni tarbiya va sprot, sayyoqlik, ommaviy axborot va targ'ibot ishi, ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, adabiy va madaniy hayoti, o'lka san'ati, kino san'ati, o'lkada din kabi bo'limlar 2105 ta jujjat aks ettirilgan. Manbalar alifbo tartibda joylashtirilgan. Ko'rsatkich ismlar va geografik nomlar ko'rsatkichi bilan ta'minlangan. Ko'rsatkichda o'zbek tilidagi nashrlar berilgan.

"Ташкент (К 2200-летию)" rus tilidagi ko'rsatkichda 8 ta bo'limda joylashtirilgan bo'lib unda 2003 ta hujjat aks ettirilgan. Manbalar alifbo tartibda joylashtirilgan. Ko'rsatkich ismlar ko'rsatkichi bilan ta'minlangan. Ko'rsatkichda rus tilidagi nashrlar berilgan.

Shunday ko'rsatkichlardan biri "Ro'yi zamin sayqali" (2007) deb nomlanib, u Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyi munosabati bilan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi Milliy bibliografiya bo'limi xodimlari tomonidan tuzildi. Unda Samarqand tarixi va hozirgi kungi hayoti, ayniqsa mustaqillik yillarida shaharda yuz bergen o'zgarishlar yoritilgan o'zbek va rus tillaridagi 1782 ta adabiyot aks ettirilgan.

Qo'llanma 8 ta bo'limda iborati. Samarqand – Sharq durdonasi, Samarqandning ko'hna kechmishi, Madaniy yodgorliklar, Yo'l ko'rsatkich, albomlar, Samarqand

shaharlari va tumanlari, Samarqanda allomalar yurti, Samarqand badiiy adabiyotda, Istiqlol nuridan porlagan diyor.

Adabiyotlarning bibliografik ro'yxatida o'rin olgan "Samarqandning ko'hna kechmishi" bo'limidagi ma'lumotlar Samarqand tarixi va mustaqillikgacha bo'lgan davrni aks ettiruvchi manbalardan tashkil topgan. "Istiqlol nurida porlagan diyor" bo'limida ma'lumotlar sohalar bo'yicha bo'linishiga ega bo'lib, mustaqillik yillaridagi davrni o'z ichiga oladi. Adabiyotlarga ma'lumot annotasiyasi berilgan.

Shunday ko'rsatkichlardan yana biri "Xiva sharq me'morchiligining tengsiz javohiri" (2022) deb nomlanib, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi xodimlari tomonidan tuzildi. Unda Xiva tarixi va hozirgi kungi hayoti, ayniqsa mustaqillik yillarida shaharda yuz bergan o'zgarishlar yoritilgan o'zbek, rus va boshqa tillaridagi 1632 ta adabiyot aks ettirilgan.

Xiva shahrining o'tmishi haqida so'zlovchi tarixiy obidalari va bugungi aks etgan adabiyotlarning o'rganish, targ'ib etish maqsadida tayyorlangan ko'rsatkichda adabiyotlarning bibliografik ro'yxati 22 ta bo'limda o'zbek, rus va boshqa tillardagi materiallar alifbo tartibda joylashtirilgan. Bunlan tashqari ko'rsatkichda Xiva to'g'risidagi arxiv hujjatlari, muzeylar fondida saqlagan hujjatlar qo'lyozma asarlari ham kiritilgan. Bibliografik ko'rsatkich yordamchi apparatlari bilan ta'minlangan.

Xulosa qilib aytganda, o'lkashunoslik bibliografik qo'llanmalar tizimini ahamiyati shundaki, iste'molchilar tomonidan tushgan so'roqlarni bajarishda, o'lka haqidagi nashrlarning turlari va xillarini o'rganishda, o'lka haqidan chop etilayotgan adabiyotlarni oqimi va massivi bilan tanishishga yordam bersa, ikkinchidan shu asarlarnin tavsiya va targ'ibot qilishda, yosh avlodni o'z o'lakada, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy boyliklari, geografiyasi, adabiy-badiiy muhiti bilan tanishishga imkoniyat yaratiladi hamda Vatanni sevishga, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Foydalanilagan adabiyotlar

1. Библиографияшунослик: дарслик / И.Ж. Юлдошев, Т.Байтураев, Г'.Нарзуллаев, Н. Маматраимова. –Тошкент, 2022.–236 б.
2. Maxmudov, M.X. Umumiy bibliografiya: o'quv qo'llanma / M.X.Mahmudov, G.Ziyodullayeva.–Toshkent: Aloqachi, 2020. –200 b.
3. Маматраимова, X. Кутубхона ўлкашунослиги ва ўлкашунослик библиографияси: ўқув қўлланма / X.Маматраимова.– Тошкент, 2008. –82 б.
4. Тошкент 2200 ёшда: библиографик кўрсаткич / тузувчилар: Ф. Рўзиева, Н.Умарова,Х.Маматраимова; мухаррир X. Маматраимова; Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, Миллий библиография бўлими.– Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти,2009.–232 б.

5. Ташкент (К2200-летию):библиографический указатель литературы / составители: Н.М. Ахмедшина,А.С.Жапаров, Г.Б.Ахмеджонова; редактор И.З.Маминова. –Ташкент: Изд-во Национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои,2008.–192 с.
6. Xiva sharq me'morchiligining tengsiz javohiri: bibliografik ko'rsatkich / tuzuvchi F. Ro'ziyeva ; muharrirlar Sh. Rahimova, M. Xidoyatova; bosh muharrir U. Teshabayeva.–Toshkent : Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2022.–208 b.